

Xulosa. Shu kungacha o'tkazilgan tadqiqot va kuzatuvlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Kartoshka kuyasi Xorazm viloyati va Qoraqolpog'iston respublikasida paydo bo'lib, kartoshkachilikka katta putur yetkazmoqda.

2. Mintaqaning iqlim sharoitidan kelib chiqib, zararkunandaning dalada qishlab qolishiga o'rin qoldirmagan holda yerlarni chuqur shudgorlab, kuzda sho'r yuvish ishlarini o'tkazib, almashlab ekishga amal qilish hamda bu hasharotga qarshi

kurash tizimida, kartoshkani past harorat (3-5°) sharoitida saqlashga katta e'tibor berish lozim, bunday sharoitda kartoshka kuyasining barcha shakllari o'lib ketadi.

3. Kartoshka dalasida kuyaning qurtlari paydo bo'lsa, quyidagi insektitsidlarning birortasini muvaffaqiyatli, biryola boshqa zararkunandalarni ham nazarda tutib, ishlatsa bo'ladi: Fimitacsam super, wp – 0,2 kg/ga, Antiklorad miks, sus.k. – 0,1 l/ga, Espero, sus.k.–0,1 l/ga.

ADABIYOTLAR:

1. Коренев Г.В., Подгорный П.И., Шербак С.Н. Растениеводство с основами селекции и семеноводства. – М.: Колос, 1983. – 510 с.
2. Xo'jaev Sh.T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari// – Toshkent: "Fan", 2010. – 355 b.
3. Никритин Л.М. Картофельная мол//Ж. Защита растений. – Москва, 1993. - №9. – С. 25.
4. Черный А.М., Чайка В.Н., Бакланова О.В. Контроль численности колорадского жука и картофельной моли //Ж. Защита растений. – Москва, 1994. - №5. – С. 7-8.
5. Dushamov B.K., Obidjanov D.A. Kartoshka kuyasi – ekin kushandasi //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – 2011. - №5. – 21 b.
6. Dushamov B.K., Obidjanov D.A. Xorazm sharoitida kartoshka kuyasining tarqalishi va zarari// O'zO'HQITI ning 100 yilligiga bog' ilmiy-amaliy konf. maq. to'plami. – Toshkent, 2012. – 67-68 b.
7. Рахимов У.Х. Болезни картофеля и баклажана, вызываемые почвенными грибами и обоснование биологических мер борьбы с ними. – Автореф. канд. дисс. по спец. 06.01.11. – Защита растений от вредителей и болезней. – Ташкент-УзНИИЗР, 2001. – 24 с.
8. Obidjanov D.A., Xo'jaev Sh.T. Kartoshka kuyasi O'zbekistonda /Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami. – Tashkent, 2013. O'zPITI, - B.407-409

UO'T: 633,51; 632,7; 632,934; 632,937; 632,34;

G'O'ZA VA BEDA QANDALASIGA QARSHI SAMARALI INSEKTITSID

Sattarov Navruz Ro'zievich, q/x.f.n.

O'simliklar karantini va himoyasi ITI Surxondaryo filiali direktori.

Abduraxmonov Shuxrat Mamatmurotovich, assistent,

Boboqulov Og'abek Abdiquodir o'g'li, talaba,

Termiz agrotehnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.

Annotatsiya. Maqolada SAFIGOR-40-EC insektitsidini g'ozadagi beda va g'o'za qandalalariga qarshi qo'llanilgan-da olinadigan biologik samaradorligi Surxondaryo viloyati sharoitida o'rganilgan. Sinovdagi preparat ishlab chiqarish tajribasida sinalgan. Beda va g'o'za qandalasiga qarshi kurashish uchun qoniqarli samaradorlikka ega bo'lgan.

Kalit so'zlar: Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, hasharot, insektitsid.

Аннотация. В статье изучена биологическая эффективность инсектицида САФИГОР, 40 ЕС против люцернового и хлопкового клопов на хлопчатнике в условиях Сурхандарьинской области. Испытываемый препарат был испытан в производственном эксперименте. Удовлетворительная эффективность против люцернового и хлопкового клопов.

Ключевые слова: Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, nasekomo, insektitsid.

Annotation. In the article, the biological effectiveness of SAFIGOR-40-EC insecticide against alfalfa and cotton weevils in cotton was studied in the conditions of Surkhondaryo region. The test drug was tested in a production experiment. Satisfactory efficacy against alfalfa and cotton bollworm.

Keywords: Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, insect, insektitsid.

Kirish. Paxtani asosiy zararkunandalardan himoya qilishning yangi kimyoviy vositalarini sinovdan o'tkazish va joriy etish ushbu ekinni himoya qilishning yaxlit tizimini takomillashtirish bo'yicha umumiy strategiyaning ajralmas qismidir, chunki bu usul ushbu tizimda asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Yil sayin

paxta maydonlari yildan-yilga kamayib bormoqda. Shunday ekan, bu sharoitda paxtachilikda hosildorlikni oshirish, ilm-fan yutuqlaridan unumli foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligida O'simliklarni himoya qilish sohasi juda dolzarb sohaga aylanib ulgurdi. Eko sistemasida ro'y

berayotgan global isish, zavod fabrikalarning haddan tashqari ko'payishi, Respublikamiz mustaqillikka erishishi munosabati bilan juda ko'plab xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va qishloq xo'jaligida yaqin aloqalarning yo'lga qo'yilishi natijasida yangi tur karantin zararkunandalarning kirib kelishi va ularning Respublikamizning turli hududlariga tarqalishi kuzatilmoqda.

Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishining jadallashuvi agrobiotsenozlarda faunistik komponentlarning salbiy ta'sir darajasini o'zgarishiga va yangilarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, g'o'za agrobiotsenozida keyingi 10 yilliklarda beda va dala qandalalari, oqqanot kabi zararkunandalarning yashashiga, ko'payishiga qulay sharoitlar vujudga keldi. O'simlikxo'r qandalalar ahamiyatining ortishi respublikamiz uchun yangi tur g'o'za qandalasining (*Creontiades pallidus*) mamlakatimizga kirib kelishi bilan bog'liq. Olib borilgan fundamental tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra so'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida qandalalarning yangi turi – g'o'za qandalasi paydo bo'lganligi aniqlandi (Xo'jaev va b., 2017, 2018) Ularning g'o'zaga zarar yetkazish darajasi kuchayib, yildan-yilga zararlilik areali ortib bormoqda.

Surxondaryo viloyatida qandalalarning qishloq xo'jalik ekinlarida ayniqsa g'o'zada tarqalishi va ommaviy ko'payib, zarar yetkazayotganligi ko'pchilik fermerlarda "Qandala qanday hasharot?", "Qanaqa zarar yetkazadi, unga qarshi qanday samarali kurash tadbirlarini o'tkazish kerak?" degan savollarning tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Shularni e'tiborga olib, 2022 yil mavsumda Safigor-40-EC preparatini ilk bor g'o'za va beda qandalasiga qarshi dala sharoitida sinab, biologik samaradorligi o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. O'simlikxo'r qandalalarga qarshi kimyoviy usulda kurashishda e'tiborga olish kerak bo'lgan yana bir muhim jihat borki, ya'ni ularning kimyoviy vositalarga sezgirligi qandala turlari bo'yicha farq qiladi. Bugungi kunda paxtachiligimizga katta muammo tug'dirayotgan g'o'za qandalasi ko'pgina kimyoviy preparatlarga nisbatan chidamli bo'lib qolgan. Shular sababli o'simlikxo'r qandalalar orasida g'o'za maydonlarida dominantlik qiladigan beda hamda g'o'za qandalalariga qarshi insektitsidlar samarasini turlar bo'yicha o'rganish asosida o'tkazildi.

SAFIGOR-40-EC preparatining ishlab chiqarish sinovlari Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi fermer xo'jaliklari dalalarida g'o'za navlari bo'yicha o'tkazildi, nav "Buxoro-102". G'o'zaning ommaviy meva hosil bo'lish bosqichida, ertalab 28°C gacha bo'lgan haroratda va shamol tezligi 1 m/sek gacha bo'lgan davrda amalga oshirildi.



1-jadval.

SAFIGOR-40-EC insektitsidining g'o'za qandalasiga qarshi biologik samaradorligi .
Surxondaryo viloyati, Angor tumani, «Surxondaryo Agroxizmat» MCHJ Qo'l apparati, 330 p/ta. 2022 y.

№	Tajriba varianti	Ta'sir etuvchi modda	Sarf me'yori, l/ga	Samaradorlik, % da kunlar:			
				1	3	7	13
1.	SAFIGOR-40-EC	Dimetoat	1,0	95,0	99,2	97,3	93,1
2.	Agrofos, 55% e.k. (andoza)	Sipermetrin+xlörprifos	1,0	92,7	96,0	93,8	84,9
3.	Nazorat (ishlanmagan)	-	-	--	--	--	--

2-jadval.

SAFIGOR-40-EC insektitsidining beda qandalasiga qarshi biologik samaradorligi .
Surxondaryo viloyati, Angor tumani, «Surxondaryo Agroxizmat» MCHJ Qo'l apparati, 330 p/ta. 2022 y.

№	Tajriba varianti	Ta'sir etuvchi modda	Sarf me'yori l/ga	Samaradorlik, % da kunlar:			
				1	2	3	4
1.	SAFIGOR-40-EC	Dimetoat	1,0	95,5	100	95,9	88,8
2.	Agrofos, 55% e.k. (andoza)	Sipermetrin+xlörprifos	1,0	100	100	95,4	93,8
3.	Nazorat (ishlanmagan)	-	-	--	--	--	--

G'o'za qandalasiga qarshi sinovdagi Safigor-40-EC preparati qoniqarli 95,0-93,1% samaraga ega bo'lgan bo'lsa, andoza preparat Agrofos, 55% e.k. mos ravishda 92,7 – 96,0% samaraga ega bo'ldi, beda qandalasiga qarshi o'tkazilgan tajribada Safigor-40-EC preparatlari g'o'za qandalasiga qarshi 95,0-100% samaraga ega bo'lib, andoza preparat Agrofos, 55% e.k. mos ravishda 95,4 – 100% samaraga ega bo'ldi bu tur qandalalarga qarshi kurashda a'lo natijaga ega bo'lganini ko'rsatdi (1-, 2-jadval).

Tajribalar mavjud metodika (Metodik ko'rsatmalar, 2004) bo'yicha o'tkazildi va biologik samaradorlikni hisoblash Abbot formulasi yordamida amalga oshirildi. Eksperimental natijalarni matematik qayta ishlash kasr usuli yordamida amalga oshirildi, bu o'rtacha ($S \pm m$) tuzatishni hisoblashni o'z ichiga oladi.

Xulosa. SAFIGOR-40-EC insektitsidi g'o'zada har ikkala tur, ya'ni g'o'za va beda qandalasiga qarshi andoza variantidan kam bo'lmagan darajada yuqori samaradorlikka ega.

ADABIYOTLAR:

1. Xo'jaev Sh.T., Sattarov N., Musaev D. G'o'zada o'simlikxo'r qandalalarning zarari //Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. – 2017. - №2. – B. 35-37.
2. Xo'jaev Sh.T., Sattarov N.R., Musaev D.M. Zararli qandala hasharotlar haqida nimalarni bilmoq kerak? Ilmiy-ommabop ocherk. –Toshkent, 2018. –B. 64.
3. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, BFM va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (II-nashr). – Toshkent, 2004. – 104 b.

UO'T: 635.4.632.7.512.934.1.

SURXON-SHEROBOD ADIRLARIDA SHUVOQ BARGXO'RINING KO'PAYISHI VA UNGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING SAMARADORLIGI

Xaytmuratov Arslanbek Fayzullayevich, q/x.f.d.,
Termiz agrotekhnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.

Annatsiya. Maqolada Shuvoq o'simligining xavfli zararkunandasi bo'lgan shuvoq bargxo'ri (*Theone costipennis* Kirsch.)ning morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari va unga qarshi kurash choralari to'g'risida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda shuvoq bargxo'riga qarshi Dalprid, 20% n.kuk. 0,1-0,15 kg/ga; Entoluch, 20% em.k. 0,1-0,15 l/ga Killer super, 20% em.k. 0,05 l/ga sarf-me'yorlarda qo'llash tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Shuvoq, chorva, yaylov, shuvoq bargxo'ri, zararkunanda, biologiya, preparat, qarshi kurashish, biologik samaradorlik.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований морфологических, биологических, экологических особенностей полинного листоеда (Тхе оне Состипеннис Кирсч.), который является опасным вредителем растения полины и меры борьбы с ним. В исследованиях против полинного листоеда рекомендуется использовать Далприд, 20% н.кук. 0,1-0,15 кг/га; Энтолуч, 20% ем.к. 0,1-0,15 л/га Киллер супер, 20% ем.к. в указанных норма расхода.

Ключевые слова: Полин, животноводство, пастбище, полинный листоед, вредитель, биология, препарат, борьба, биологическая эффективность.

Annotation. The article presents the results of studies of the morphological, biological, environmental characteristics of the wormwood leaf beetle (*Theone Costipennis* Kirsch.), which is a dangerous pest of the wormwood plant, and measures to combat it. In studies against wormwood leaf beetle, it is recommended to use Dalprid, 20% n.c. 0.1-0.15 kg/ha; Entoluch, 20% volume. 0.1-0.15 l/ha Killer super, 20% capacity. within the specified consumption rates.

Key words: Wormwood, livestock farming, pasture, wormwood leaf beetle, pest, biology, drug, control, biological effectiveness.

Kirish. Chorva mollarini, jumladan, qo'y, echkilarni doimiy ravishda yaylovlarda boqishda yaylov o'simliklaridan shuvoqning ahamiyati juda katta.

Shuvoq murakkabguldoshlar oilasiga mansub yarimbuta o'simlikdir. Bo'yi 30-50 santimetrga yetadi, mart oyida ko'karadi. Aprel-may oylari yonshoxchalar hosil qilib o'sadi, yoz oylari o'sishdan to'xtaydi. Sentabr oyida gullab, oktabr oyida urug'laydi. Oktyabrning oxirida urug'i to'liq pishib yetiladi. Shuvoqning bir tupida 40-50 gacha yonshoxchalar bo'lib, barglari oq tukchalar bilan qoplangan. Shuvoqning ko'plab turlari mavjud. Shuvoq o'sgan yaylovlarda turli xil o'simliklar: qo'ng'irbosh, rang, chitir, karrak, nuxatak, esparset kabi o'simliklar yaxshi o'sishi kuzatilgan. Shuvoqni mollar ko'kligida ham, qurigandan keyin ham juda yaxshi yeydi. Shuvoq gektaridan 10-12 sentnergacha xashak

olish mumkin[10].

Ammo shuvoq bilan oziqlanuvchi hasharotlar o'simlikning o'sib, rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zararkunandalarga o'z vaqtida samarali qarshi kurashni tashkil etish uchun ularning bioekologiyasini o'rganish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim, dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shuvoq bargxo'ri (*Theone costipennis* Kirsch.) – qatiqqanotlilar (*Coleoptera*) turkumining, bargxo'rlar (*Chrysomelidae*) oilasiga mansub bo'lib, shuvoq o'simligining xavfli zararkunandalardan biridir. Uning bioekologik xususiyatlarini va yaylov o'simliklaridagi zararini qo'shni davlatlar yaylov hududlarida, Qozog'istonda [2, 3, 4], Turkmanistonda [5], hamda Respublikamizning qizilqum yaylovlari [1] va Surxon-Sherobod adirlarida tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ammo Respublikamizning yaylov